

## VII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 5057 tani tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyunda yalpi hududiy mahsulotning 65,5 foizi (2021- yil yanvar-iyunda 65,6 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 424,4 mld. so'mni (jami sanoat ishlab iqarishining 23,9 foizi) yoki 2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 117,6 foizni tashkil qildi;

-12 657,5 mld. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 102,9 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,7 foizi) tashkil qildi.

-2 403,4 mld. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 32,6 foizi) o'zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 105,9 % tashkil qildi;

-2 785,0 mld. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 80,6 foizi) bajarildi va 2021- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 108,1 foizni tashkil qildi;


-avtomobil transporti yuk aylanmasining 110,0 foizga (umumiyligi yuk aylanmasiga nisbatan 85,8 ulushi), yo'lovchi aylanmasining esa 108,5 foizga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasiga nisbatan 96,7 ulushi) teng bo'ldi;

-chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 83,1 foizi yoki 7 433,1 mld. so'm (5,3 foizga o'sish kuzatildi) va xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 66,8 foiz ulushi yoki 2 240,4 mld. so'mni tashkil qildi;

-50,3 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 32,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-iyun oylarida (jamiga nisbatan foizda)



**2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi quyidagicha**

|  | <i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so‘m</i> | <i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i> |
|--|--|--|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 12 657,5   | 76,8   |
| Sanoat                                   | 2 424,4  | 23,9   |
| Qurilish                                 | 2 785,0  | 80,6   |
| Chakana savdo                            | 7 433,1  | 83,1   |
| Xizmatlar                                | 4 973,0  | 68,1   |
| Eksport, <i>mln. AQSH doll.</i>          | 50,3   | 32,0   |
| Import, <i>mln. AQSH doll.</i>           | 66,3   | 49,0   |

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi quyidagicha ifodalanadi:**



YaHM      Sanoat      Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi      Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar      Qurilish      Xizmatlar      Savdo



2021- yil yanvar-iyun




2022- yil yanvar- iyun

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko‘rsatkichlari**

|   | <i>O‘lchov<br/>birligi</i> | <i>2021- yil</i> | <i>2022- yil</i> | (+)          |
|---|----------------------------|------------------|------------------|--------------|
| <b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b> | <i>birlik</i>              | <b>30644</b>     | <b>34527</b>     | <b>3883</b>  |
| <b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar</b>      | <i>birlik</i>              | <b>6498</b>      | <b>5057</b>      | <b>-1441</b> |
| YAHM  | %                          | 65,6             | 65,5             | -0,1         |
| Sanoat  | %                          | 27,3             | 23,9             | -3,4         |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi                          | %                          | 99,4             | 98,7             | -0,7         |
| Investitsiya  | %                          | 32,5             | 32,6             | 0,1          |
| Qurilish  | %                          | 78,9             | 80,6             | 1,7          |
| Savdo   | %                          | 86,8             | 83,1             | -3,7         |
| Xizmatlar   | %                          | 68,6             | 68,1             | -0,5         |
| Yuk tashish   | %                          | 85,9             | 86,9             | 1,0          |
| Yuk aylanmasi   | %                          | 86,4             | 85,8             | -0,6         |
| Yo‘lovchi tashish   | %                          | 95,6             | 90,3             | -5,3         |
| Yo‘lovchi aylanmasi   | %                          | 97,3             | 96,7             | -0,6         |
| Eksport   | %                          | 46,1             | 32,0             | -14,1        |
| Import  | %                          | 58,0             | 49,0             | -9,0         |


**2022- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida  
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**



**Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi, foizda**

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 65,5 foizni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-iyunida 65,6 foiz). YAHM tarkibida ko'payishi yirik korxonalar ulushi tushishi bilan tushuntiriladi.


**2022- yil yanvar-iyun**



## **Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so‘mda)**


Hududlar bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (483,0 mlrd. so‘m), Kasbi tumani (235,5 mlrd. so‘m), Qamashi tumani (209,8 mlrd. so‘m), Koson tumani (198,9 mlrd. so‘m), Qarshi tumani (189,9 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi. G’uzor tumani (68,6 mlrd. so‘m), Muborak tumani (63,4 mlrd. so‘m) va Dehqonobot tumani (50,2 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

### **2022- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kitob (88,9 foiz), Chiroqchi (83,1 foiz), Shahrisabz shahri (77,9 foiz) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga G’uzor (3,9 foiz), Nishon (6,4 foiz), Dehqonobod (8,6 foiz), Qarshi (20,4 foiz) va Muborak (21,8 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2022- yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo‘yicha ko‘proq qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hajmi Chiroqchi (1905,0 mlrd. so‘m), Koson (1067,6 mlrd. so‘m), Kitob (1026,8 mlrd. so‘m), Yakkabog’ (959,3 mlrd. so‘m), Nishon (907,7 mlrd. so‘m), Mirishkor (882,3 mlrd. so‘m), Qarshi (871,1 mlrd. so‘m), Kasbi (863,2 mlrd. so‘m), G’uzor (768,4 mlrd. so‘m), Shahrисабз (753,5 mlrd. so‘m), Dehqonobod (540,5 mlrd. so‘m), tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shahrисабз (109,6 mlrd. so‘m) va Qarshi (103,4 mlrd. so‘m) shaharlarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi hajmi past bo‘lib qolmoqda.

**2022- yil yanvar-iyunda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o‘rmon  
va baliqchilik xo‘jaligi hajmi va o‘sish sur’ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (1414,7 mlrd. so'm), Chiroqchi (959,6 mlrd. so'm), Koson (723,8 mlrd. so'm) tumanlari va Shahrисabz shahri (732,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Nishon (267,8 mlrd. so'm), Qarshi (257,8 mlrd. so'm), Shahrисabz (257,0 mlrd. so'm) va Mirishkor (249,8 mlrd. so'm) tumanlarida chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan pastroqni tashkil qildi.

### **2022- yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



### **2022- yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati**



**2022- yil yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlardagi hududlar  
bo‘yicha ulushi, foizda**

|                                 | <i>Sanoat</i> | <i>Qishloq,<br/>o‘rmon va<br/>baliqchilik<br/>xo‘jaligi</i> | <i>Investitsiya</i> | <i>Qurilish</i> | <i>Chakana<br/>savdo</i> | <i>Xizmatlar</i> |
|---------------------------------|---------------|---|---------------------|-----------------|--------------------------|------------------|
| <b>Qashqadaryo<br/>viloyati</b> | <b>23,9</b>   | <b>98,7</b>   | <b>32,6</b>         | <b>80,6</b>     | <b>83,1</b>              | <b>68,1</b>      |
| Qarshi sh.                      | 32,8          | 99,4  | 38,8                | 66,2            | 51,0                     | 45,8             |
| Shahrisabz sh.                  | 77,9          | 99,9  | 65,1                | 71,0            | 97,8                     | 61,8             |
| <i>tumanlar:</i>                |               |   |                     |                 |                          |                  |
| G‘uzor                          | 3,9           | 98,9  | 11,3                | 82,3            | 98,2                     | 74,3             |
| Dehqonobod                      | 8,6           | 98,6  | 26,6                | 100,0           | 99,0                     | 79,0             |
| Qamashi                         | 67,5          | 99,8  | 47,1                | 100,0           | 98,4                     | 85,9             |
| Qarshi                          | 20,4          | 99,3  | 31,8                | 94,4            | 96,0                     | 83,7             |
| Koson                           | 40,4          | 100,0   | 65,0                | 93,3            | 98,9                     | 86,2             |
| Kitob                           | 88,9          | 99,6  | 25,8                | 93,8            | 96,4                     | 86,8             |
| Mirishkor                       | 29,6          | 99,1  | 8,7                 | 100,0           | 98,9                     | 90,6             |
| Muborak                         | 21,8          | 98,0  | 57,5                | 68,1            | 94,8                     | 67,2             |
| Nishon                          | 6,4           | 94,3  | 9,9                 | 97,6            | 98,6                     | 78,1             |
| Kasbi                           | 23,9          | 94,2  | 27,6                | 98,5            | 98,7                     | 88,2             |
| Chiroqchi                       | 83,1          | 99,9  | 14,9                | 58,7            | 97,4                     | 67,8             |
| Shahrisabz                      | 49,0          | 99,8  | 25,9                | 99,9            | 94,3                     | 44,3             |
| Yakkabog‘                       | 26,2          | 99,4  | 77,1                | 96,6            | 98,4                     | 81,0             |

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining kichik biznesdagi eng yuqori ulushi Kitob (88,9 foiz), Chiroqchi (83,1 foiz), Shahrisabz shahri (77,9 foiz) va Qamashi (67,5 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Yakkabog‘ (77,1 foiz), Shahrisabz shahri (65,1 foiz), Koson (65,0 foiz) va Muborak (57,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Qurilish sohasida Dehqonobod, Qamashi, Mirishkor, tumanlarida mos ravishda (100,0 foiz), Shahrisabz (99,9 foiz) va Kasbi (98,5 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Chakana savdoda Dehqonobod (99,0 foiz), Mirishkor va Koson mos ravishda (98,9 foiz) va Kasbi (98,7 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Xizmatlar sohasida Mirishkor (90,6 foiz), Kasbi (88,2 foiz), va Kitob (86,8 foiz) tumanlarini tashkil etadi.

Joriy davrda mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvalar o'tkazildi. Qurilish sohasida respondentlarning 30,9 foiz qulay, 40,3 foiz qoniqarli deb hisoblashini, savdo sohasida – 38,8 foiz qulay va 29,6 foiz qoniqarli, mos ravishda xizmatlar sohasida – 32,6 foiz va 34,4 foiz, sanoatda – 32,6 foiz va 39,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 21,6 foiz va 30,1 foiz qoniqarli tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 28,8 foiz, sanoatda – 28,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 48,3 foiz, xizmatlarda – 33,0 foiz va savdoda – 31,5 foizni tashkil qildi.


### Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash

2022- yil II -chorak uchun, foizda



**Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda** savdo tarmog'ida qulay 37,0 foiz, qoniqarli 32,2 foiz, xizmatlarda qulay 36,4 foiz, qoniqarli 32,8 foiz, sanoat korxonalari qulay 28,4 foiz, qoniqarli 40,4 foizi, qurilish tarmog'ida qulay 28,4 foiz, 34,6 foiz qoniqarli va Qishloq, o'rmon va baliqchilik ho'jaligida qulay 26,8 foiz, 28,5 foiz qoniqarli bo'lishi kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishlar  
istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyl iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.